

O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI

Yo'ldosh Rahmatov,

*Filologiya fanlari doktori (DSc),
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti*

Davirova Vazira Quvondiq qizi,

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya. O'zbek xalq maqollarining shakllanishi va taraqqiy etishi juda qadim zamonlarga borib tutashadi. Ularda o'zbek xalqining turmush tarzi, madaniyati, tarixi, yashash qonuniyatlari aks etgan. Shu sabab barcha zamonlarda xalq maqollariga qiziqish yuqori bo'lgan. O'zbek xalq maqollarining to'planishi va nashr etilishi o'n birinchi asrda Mahmud Koshg'ariy faoliyati bilan boshlangan bo'lsa ham, ularning jahon xalqlari orasiga tarqalishi va o'rganilishi keyingi davrlarga tegishli. Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarining shakllanishi va ilmiy nuqtai nazardan mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: folklorshunoslik, maqol, matal, badiiy tafakkur, paremiologiya, kommunikatsiya, ibratomuz fikr, tajriba, epik jarayon, mantiq.

Аннотация. Формирование и развитие узбекских народных пословиц восходит к глубокой древности. В них отражены образ жизни узбекского народа, его культура, история и закономерности бытия. По этой причине во все времена интерес к народным пословицам оставался высоким. Хотя собрание и издание узбекских народных пословиц началось ещё в XI веке благодаря деятельности Махмуда Кашгари, их распространение среди народов мира и научное изучение относятся к более поздним периодам. В данной статье рассматриваются вопросы формирования узбекских народных пословиц, а также их изучения с научной точки зрения отечественными и зарубежными учёными.

Ключевые слова: фольклористика, пословица, поговорка, художественное мышление, паремология, коммуникация, назидательная мысль, опыт, эпический процесс, логика.

Abstract. The formation and development of Uzbek folk proverbs date back to ancient times. They reflect the way of life, culture, history, and patterns of existence of the Uzbek people. Therefore, interest in folk proverbs has always been high. Although the collection and publication of Uzbek folk proverbs began in the 11th century with the work of Mahmud Kashgari, their dissemination among the peoples of the world and their scholarly study belong to later periods. This article examines the formation of Uzbek folk proverbs and their study from a scientific perspective by both domestic and foreign scholars.

Keywords: folklore studies, proverb, saying, artistic thinking, paremiology, communication, didactic thought, experience, epic process, logic.

Kirish. Xalq maqol va matallari – uzoq tarix sahifalaridan yetib kelayotgan xalq o'g'itlari, u xalq badiiy dunyoqarashining aksi, botiniy dunyosining oynasi, o'tmishi, madaniyati va turmushi haqidagi falsafiy xulosalarini o'zida to'la jamlagan ixcham shaklga ega ibrat. Maqol va matallar mazmunida nafaqat xalq kechmishi jam etadi, balki ijtimoiy hayotning buguni va ertasi uchun poydevor dastur bo'la oladi desak yanglish bo'lmaydi. Shu bois o'z o'tmishi, o'z qadr-qimmatini, o'z badiiy tafakkurining taraqqiyoti uchun qayg'urgan xalq maqollarni yashash qonunlari sifatida hamisha nutqida qo'llaydi va

maqollarda aks etgan o'gitga amal qilish bilan birga to'plash, o'rganish va ommalashtirishga intiladi.

Adabiyotlar tahlili. "Xalq maqol va matallari shunchaki shakllanmaydi. Xalqqa yaqin va ko'ngliga ma'qul kelgan ibratomuz xulosaga ega jumla yoki siqiq nutq shakli ma'lum zamon va ma'lum makonda omma tafakkurida sayqallanib maqolga aylanadi. Ular muntazam ravishda takomillashib ijtimoiy hayot bilan yonma-yon yashaydi va vaqt o'tgan sari rivojlanib, takomillashib va kengayib, variantlashib boraveradi. Shu bilan birga, maqol va matallarning mazmuni joriy zamon va makonga moslashib, mavjud zamon hayoti va falsafasiga xizmat qiladi", deydi folklorshunos olim Y. Rahmatov. Tadqiqotchining mazkur fikrlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, maqol va matallar doimiy tarzda barcha zamonlar uchun mantiqan yangi va mazmunan yosh hisoblanadi. Chunki maqol barcha zamon kishilarining tarbiyasida bir xil ahamiyat kasb etadi. Odatda maqol va matallar shakl va mazmun jihatidan makon va zamonga taalluqlashadi, ularning hajmi ba'zan kengayib borishi yoki, bil'aks, hajmning ixchamlashib borishi ham tabiiy holdir.

Turkman paremiologi professor B. M. Karriev bu haqda shunday deb yozadi: "Odatda, maqolni dastlab o'tkir kuzatuvchanlik va o'z fikrini bir necha so'z bilangina ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bo'lgan bir kishi to'qib chiqaradi. O'rinli ifodalangan bu fikr, individual bo'lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qo'llanishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, ayrim, yagona bir holga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday o'rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga qarab, asta-sekin keng umumlashma ma'noga ega bo'la boradi".

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'zbek xalq maqollarining shakllanishi va o'rganilishi tarixiy-qiyosiy hamda tavsifiy tahlil metodlari asosida yoritildi. Shuningdek, folklorshunoslik, lingvistik va paremiologik yondashuvlar uyg'unligida maqollarning kelib chiqish omillari va ilmiy talqinlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlar asarlariga tayangan holda kontent-tahlil usulidan ham foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Maqol va matallar dastlab xalq orasida obro'li, dono va tadbirkor, xalqning ko'nglidan joy olgan kishi, katta hayotiy tajribaga ega bilimdon odam va ma'lum bir urug', qabila, ovulni uzoq vaqt boshqargan oqsoqol yoki onaxon tilida shakllanadi. El ko'rgan donishmandning ibratomuz fikrining xalq orasida maqol darajasiga yetishi uchun uzoq davr va bir qator omillar sabab bo'ladi:

✓ maqol va matallar ijtimoiy turmush shaxslari orasidagi kommunikatsiyani yuzaga keltiruvchi shunchaki fikr emas, balki ijtimoiy-siyosiy jamiyat va kundalik madaniy hayotiy turmushni sinchkov hamda qunt bilan kuzatish orqali yuzaga kelgan fikrlardan chiqarilgan ibratomuz xulosa bo'lishi kerak;

✓ ibratomuz hukm va xulosa xalq jamoasi tomonidan qabul qilingan, xalqning qarashlari, an'analari, tafakkuri va istak-xohishiga to'g'ri kelishi zarur.

Mazkur individual turmush tajribasidan yuzaga kelgan xulosa zamonlar o'tishi bilan og'izdan-og'izga ko'chib ommalasha boradi. Maqol va matallarning ma'naviy mag'ziga kelgusi zamon ruhiyati qorishib boradi, uning qatidagi tarixiy-arxaik jumlar o'rnida yangi neologizm so'zlar qo'shiladi. M. Hakimov bu borada shunday deydi: "Tildagi har bir maqol qachonlardir ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan bo'lib, davrlarning o'tishi natijasida yaratuvchining nomi noma'lum bo'lib qoladi. Yakka shaxs tomonidan yaratilgan aforizm uzoq muddat davomida og'izdan-og'izga o'tib, silliqlashib, pardozlanib keladi va umumxalq maqoliga aylanib ketadi".

Binobarin, har qanday ibratomuz fikr aslida aniq bir shaxsga tegishli bo'ladi, ammo maqollar ilk bor pandona xususiyatga ega oddiy va samimiy turmush tajribalariga asoslangan gap tarzida shakllanib, keyin ushbu nutq bo'lagi uzoq hayotiy kuzatuvlar jarayonida o'z tasdig'iga ega bo'ladi. Kishi ijtimoiy hayotda turmush kechirish asnosida aynan o'sha holat yoki hodisaga takror duch kelishi tabiiy, shunda uning xotirasidagi bir paytlar eshitgan ibratli so'z o'z tasdig'ini topadi va "xalq bekorga shunday demagan ekan" degan xulosaga keladi.

Zero, o'zbek paremiologi B. Sarimsoqov aytganidek: "Maqollarda aks etgan voqea-hodisaga nisbatan izchil munosabat – u yo tasdiq, yo keskin inkor yotadi. Binobarin, u yoki bu maqolni eshitgan kishida ana shu maqolda aks etgan voqea-hodisaga nisbatan aniq munosabat yuzaga keladi. Natijada maqol kishiga g'oyaviy yo'nalish beradi, ijobiy ideallarning shakllanishiga, rivojlanishiga yo'l ochadi".

Demak, maqol va matallarni nutqqa kiritishdan oldin "aytishlaricha", "otalarimiz so'ziga ko'ra", "xalq bekorga bunday demagan" kabi kiritmalarning takrorlanishi bekorga emas, aynan xotira qatidagi burungi zamon kishilarining so'zlari sanaladi. Chunki ibratni bayon etuvchi voqeaning kuzatuvchisi sifatida xalq maqollarini qandaydir holat, jarayonni tasdiqlash uchun keltiradi. Maqollar makon va zamon ta'sirida ko'pchilikning nutqi va tafakkurida sayqallanib, umumlashma xulosa, hayotiy kuzatuv, tajriba natijasi o'laroq yuzaga keladi.

Ilmda maqol va matallarning shakllanish omillari turlicha izohlangan. Maqol va matallar har bir millat madaniyati va koloriti ko'rsatganligi sabab ko'pchilik olimlar ularning shakllanish omillarini o'z elati ijtimoiy-madaniy xususiyatidan kelib chiqib tasniflagan. Jumladan, rus folklorshunosi M. I. Shaxnovich xalq maqollarining quyidagi omillar asosida shakllanganini ta'kidlaydi:

1. Nutq jarayonida xalqning mehnat qilishi va maishiy turmushida ko'rganlari haqida hukm chiqarishi orqali.
2. Nutq jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan ajralib chiqishi orqali.
3. Nutq jarayonida badiiy adabiyotdan o'zlashish orqali (folklorlashuv).

O'zbek folklorshunosligida M. Hakimov fikricha:

1. Maqollar xalqning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy kurashlari sabab paydo bo'ladi.
2. Yozma adabiyot manbalari ham maqollarning kelib chiqishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqa tillardan maqollarning tarjima qilinishi ham katta ahamiyatga ega.

Tilshunos olimlar maqollarning paydo bo'lishini quyidagicha izohlaydilar:

1. Iboralar asosida shakllangan maqollar.
2. Folklor janrlari (matallar, rivoyatlar, latifalar, afsonalar, topishmoqlar) asosida shakllangan maqollar.
3. E'tiqodiy tushunchalar asosida shakllangan maqollar.
4. Xalq udumlari asosida shakllangan maqollar.
5. Xalq o'yinlari asosida shakllangan maqollar.
6. Hadislar asosida shakllangan maqollar.

Ushbu xulosalarga ko'ra folklorshunos Y.Rahmatov o'zbek xalq maqollarining kelib chiqish omillarini quyidagicha belgilaydi:

1. Ijtimoiy hayot va turmush tajribalari asosida paydo bo'lgan maqollar.
2. E'tiqod, diniy manbalar negizida paydo bo'lgan maqollar.
3. Yozma adabiy yodgorliklar ta'sirida paydo bo'lgan maqollar.
4. Boshqa tillardan o'zlashgan yoki tarjima asarlar asosida paydo bo'lgan maqollar.

Odatda, har bir xalq o'z ibratli maqol va matallariga ega bo'lish barobarida qo'shni xalqlar hayotiga qiziqadi, o'ziga yondosh va qardosh bo'lgan xalqlar madaniyatini bilishga, turmush tarzini o'rganishga harakat qiladi. Bundan tashqari, butunjahon hamjamiyatida olib boriladigan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash va o'zaro iqtisodiy hamda siyosiy aloqalarni o'rnatish maqsadida boshqa xalqlar madaniyati, tarixi, dunyoqarashi va turmush tarzini bilish muhim omil sanaladi. Shu sabab butun dunyo xalqlari qo'shni va hamkor davlatlar tarixi, madaniyati va dunyoqarashini muttasil o'rganib keladi.

Dastlab, bunday maqsadlar siyosiy qarashlar uchun xizmat qilgan, ya'ni biror hukmron mamlakat o'z yerlarini kengaytirish va davlat chegarasini mustahkamlash maqsadida bosib olmoqchi bo'lgan davlat siyosati, xalqi, hayoti, urf-odatini yaxshi o'rgangan. Shu bois josuslar tayyorlangan, ularga til o'rgatilgan. O'z navbatida ikkinchi mamlakat xalqi nutqida qo'llanadigan maqollar to'plangan.

Bu haqda oldin ham ma'lumot bergan edik, ya'ni qadimgi Rum tarixchisi Kursiy Rufning xabar berishicha, qadimgi fothlar ma'lum mamlakatni zabt etgach, yerli aholini yaxshi bilish uchun avvalo shu xalq maqollarini o'rganganligi ma'lum. Binobarin, yunon jahongiri Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni zabt etgach, mahalliy aholidan maqollarni yozib olishni buyurganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

O'zbek xalq maqollarini yaqin o'tmishda va bugungi kunda qo'shni davlatlar hamda xorijda o'rganish izchil davom etib kelmoqda. Binobarin, XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran venger sharqshunosi Herman Vamberining izlanishlari, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus orientalisti V. Ostroumovning tadqiqotlari, shu davrga xos turk olimlari Najib Osim, Basim Atalaylarning turkiy xalqlarning qadimgi maqollarini o'rganish borasidagi qiziqishlari fikrimizni dalillaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek millati, uning tarixi, madaniyati va turmush tarziga qiziqish butun jahon sharqshunoslari, etnograflari, tilshunoslari va folklorshunoslari diqqat markazidan joy oldi. Bu qiziqishlar fonida jahonga endi o'z nomi, o'z siyosati bilan chiqib kelayotgan O'zbekistonni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq sabab bo'ldi. Binobarin, nemis olimi, Germaniyaning eng yirik turkologlaridan biri Karl Rayxl o'zbek baxshilarining ijro mahoratini o'rganib, "Turkic Oral Epic", "Uzbek Epic Poetry" kabi risolalarni yaratgan. Bundan tashqari, olim dostonlarni ingliz va nemis tillariga mahorat bilan tarjima qilgan.

Ilza Sirtautas Amerikada o'zbek tili va folklori bo'yicha mutaxassis sanaladi. U o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarini, xususan latifa va ertaklarni ingliz tilida talqin qilishga va o'rganishga harakat qilgan.

Janubiy koreyalik olim O In Kyong "Alpomish" va "Jumong" dostonlari materiallari asosida o'zbek va koreys qahramonlik eposlari qiyosiy tahliliga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Xitoylik tadqiqotchi Da Zhenxin (达震鑫) "O'zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy dissertatsiyasini himoya qildi.

Turk olimasi Aynur O'z O'zjan "Kadınlarla ilgili özbek atasözleri" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yaratdi. Bundan tashqari, o'tgan asr boshlarida rus sharqshunoslari N. P. Ostroumov, A. N. Samoylovichlar XIX asr oxiri va XX asr boshida o'zbek xalq ertaklari, maqollari, dostonlari va og'zaki teatri namunalarini to'plash va nashr etishda faol ishtirok etganlar.

Shuningdek, Yakob Taube, A. Strong, Chedvik, S. Baura va Hasan Paksoy kabi olimlar ham o'zbek folklorini Yevropa tillariga tarjima qilish va tadqiq etishda muhim rol o'ynaganlar. Ko'rinadiki, o'zbek xalq og'zaki ijodiga hamma zamonlarda qiziqish katta bo'lgan.

Xususan, o'zbek xalq maqollarining Yevropa va Rossiyadagi tadqiqiga bag'ishlangan ishlar Chor Rossiyasining Markaziy Osiyo istilosidan keyingi davrda paydo bo'ldi. Dastlab venger olimi Herman Vamberi o'zbek xalq og'zaki ijodi hamda xalq maqollarini to'plab, ular haqidagi ilmiy qarashlarini 1867 yili "Chig'atoy tilidan qo'llanma" risolasida nemis tilida bayon etgan. Mazkur risola o'sha Leyptsig shahrida bosilib chiqqan edi.

Keyinchalik rus missioneri N. P. Ostroumov tomonidan ham o'zbek folklori alohida o'rganildi. Ayniqsa, olim o'zbek xalq maqollariga alohida e'tibor bilan qaradi va mingdan

ortiq o'zbek maqollarini turli usulda to'plab, ularni rus tiliga tarjima qildi. Hatto ularning tadqiqiga bag'ishlangan salmoqli maqola ham yaratdi. Mazkur maqola va olim tomonidan yig'ilgan maqollar 1895 yilda "Сарты. Этнографические материалы" nomi ostida Toshkent litografiyasida chop etilgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek xalq maqollari xalqning tajribalari, kuzatuvlari va dunyoqarashi o'laroq yuzaga keladi. Ularni o'rganish va tadqiq qilish orqali xalq ma'naviy dunyosi, turmush tarzi, xarakteri va ruhiyatini o'rganish mumkin. Shu bois qadimiy sivilizatsiya va madaniyatga ega bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari va xalqi doimiy ravishda xorijiy mamlakatlarni qiziqtirib kelgan. Mazkur hududdagi xalqlarni o'rganish va bilish maqsadida mahalliy va xorijiy folklorshunoslik ilmi rivoj topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аникин В.П., Круглов Ю.Г. "Русской народной поетической творчество". "Просвешений" Ленинград. 1983. 116-134.
2. Даль И.В. Русский народный пословицы. М.1957.... Г.М.Пермяков "От поговорки до сказки" "Наука". Москва. 1970.
3. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фанл. докт.(DSc) ...дисс. Самарқанд. 2019. –Б.54.
4. Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад, 1961. – С. 162.
5. Нурмуродов Й. Ўзбек фольклори немис тилида. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.10.
6. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Выпускъ третий. Пословицы и загадки сартовъ. – Тошкент: Еипо-Литография торг. Дома. Ф. и. Г. Бр. Каменские, 1895.
7. Раҳматов Й. Мақол ва мақолшунослик тадқиқи. –Тошкент: Фирдавс-Шох, 2022, - Б. 49.
8. Саримсоқов Б.Ўзбек халқ мақоллари ва унинг ушбу наشري ҳақида/ Ўзбек халқ мақоллари. 1-жилд. А– О. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.24.
9. Шахнович И. Пословицы И поговорки, глава ""Русское народное поетическое творчество", под редатсией П.Г.Богатирева, Москва, Учпедгиз, 1956, стр.271.
10. Тревер К.В. Памятники греко-бактрийского искусства. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1940. – 180 с.
11. Ҳакимов М. Ўзбек совет ёзувчиларининг асарларида мақол, матал ва афоризмлар. Канд.дисс. – Т.,1965. – Б. 9.